

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14869365>

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISH

Rixsiboyeva Mavluda Nigmatulla qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Mambetova Lobar Mirzavali qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

E-mail: mambetovalobar1304@gmail.com

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rinn tutadi. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish muhim vazifalardan hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Og'zaki nutq, o'qish savodxonligi, to'g'ri o'qish, tez o'qish, ongli o'qish, ifodali o'qish, ovozli o'qish, ichda o'qish.*

Jahonning rivojlangan mamlakatlari o'qitish tizimida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, bolalarda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi xalqaro tajribalarda o'quv materiallarini og'zaki va yozma nutqini shakllantirishning produktivlik darajasini kengaytirish orqali tizimlashtirish, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning lingvomadaniy asoslarini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, kichik maktab

yoshidan o‘quvchilarda kitobxonlikka aksiologik munosabatni shakllantirish, mustaqil o‘qish madaniyatiga motivatsiyani hosil qilish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini xalqaro baholash dasturlari orqali rivojlantirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish madaniyatini rivojlantirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, didaktik ta’minotni globallashuv davri pedagogikasi talabalariga muvofiq holda takomillashtirish, kommunikativ ko‘nikmalarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan konstruktiv mashqlar tuzish, izohli va ideografik lug‘atlar bilan ishslash, obrazli tafakkur va so‘z-mantiq xotirasini mustahkamlashga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn ustida ishslash orqali o‘quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish, ijodiy va nutqiy salohiyatini tarkib toptirishda kommunikativ, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish savodxnligi darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu maqsadda o‘qish savodxonligi darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do’stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O‘qish savodxonligi darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘qitilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy

istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish savodxonligi darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning o‘qish malakalarini ta’minlash bilan birga o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat kabi umumiylar mavzular doirasida birlashtirilgan.

O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularni uyg‘otishdir.

O‘qish savodxonligi darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.
2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularni oddiy kitobxonidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.
3. O‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o‘sirish.
6. O‘quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasavvurlarni shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib

borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qishning uch turidan foydalilanadi:

1. Ovozli o‘qish.
2. Ichda o‘qish.
3. Shivirlab o‘qish

Ovozli o‘qish ovozga asoslangan o‘qish bo‘lib, undan ta’lim jarayonida keng foydalilanadi.

Ovozli o‘qishning yakka, jo‘r va rollarga bo‘lib o‘qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o‘qishning bir shaklidir.

Ichda o‘qish ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o‘qiladi.

Shivirlab o‘qish yarim ovoz bilan o‘qishdir. Malakali kitobxon o‘qishning har uch turini bilishi zarur.

Ovozli o‘qishning ham, ovozsiz ichda o‘qishning ham, shivirlab o‘qishning ham o‘z qo‘llanish o‘rni va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, 2- sinf o‘quvchilari ichda o‘qiganda kam so‘z o‘qiydi, so‘zning ma’nolarini tushunmay qoladi, o‘qiganlarining mazmunini to‘liq o‘zlashtira olmaydilar.

Demak, o‘qish savodxonligi darslarida o‘qitilidigan barcha mavzular o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish va nutq madaniyatini o‘stirishga ham qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining 2-sinf uchun darslik. III qism. – Toshkent: “Novda Edutainment”, - 2023. – 96 b.
2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
3. Safarova R., Inoyatova M., G‘ulomov M., Sayfurov D., Malikova D. Alifbe. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 96 b.
4. Mambetova L.M. Distinctive features of the development of speech competence // “Ta’lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 18.11.2023. 629-631-b.
5. Mambetova L.M. The role of reading and understanding the text in the development of speech competence of students // International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Poland, conference <https://confrencea.org> August 20th 2023. - P: 102-106